

XALQONA SHE'RIYATDA OBRAZLILIKNING ASOSIY TAMOIYILLARI

Yallayev Behzod Toshtemirovich

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, 16-maktab

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Istiqlol solnomasi jamiyatimiz hayoti, xususan, milliy she'riyatda juda katta o'zgarishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, alohida yo'nalish sifatida bo'y ko'rsatayotgan she'riyat talqinlar borasida jiddiy tadqiqotlar olib borilganligi quvonarli hol. Har bir ijod namunasi davr ruhiyati, inson hayoti, quvonch-iztiroblari, maqsad-intilishlarini muayyan darajada qamrab olishi ayni haqiqat. Shu ma'noda Tilak Jo'ra she'riyati bu vazifani baholi qudrat yoritishga o'zlarida imkon topdi. Xalqlarning ijtimoiy-ruhiy, madaniy-ma'rifiy sohadagi olib borayotgan ulkan islohotchilik an'analari bugungi kunda jahon hamjamiyatida o'zining munosib bahosini olmoqda. Biz olib borgan tadqiqot mobaynida xalqona she'riyati mavzu-mundariyasi, ijtimoiy-psixologik asoslari, g'oyaviy takomili yuzasidan aniqlik kiritamiz.

Prof. N.Rahimjonov qayd etishicha: "Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish o'zbek she'riyati taraqqiyotining barcha davrlari uchun ham bosh xususiyat bo'lib kelgan. Lekin unga erishish yo'llari ko'p, usullari nihoyatda xilma-xil. Xususan, majoziy obrazlilik haq so'zni aytishning, voqelikni realistik idrok etishning shakllaridan biri. She'rga yolg'on yot narsa. U o'lim bilan barobar. Shoir o'zini o'limdan, yolg'ondan asrash kerak. Shu ma'noda, har bir she'rning yuzaga kelishi, bu o'lim bilan yuzlashish demak. Har bir odam, shu jumladan, shoir ham o'zi bilan o'zi kurashib yashaydi. Ana shu jarayon – o'zi bilan kurashishning o'zi san'at, qolgan hammasi omilkorlik. Shu boisdan, shoirning o'z jonini saqlaydigan joyi yo'q"¹. She'rda yolg'on tuyg'u, yolg'on ifodalar aralashgan ijod namunalarini ko'rdik. Sobiq itfoq davrda ayrim shoirlar she'rlarini bugun o'qishga o'zingizda xijolat hissini sezasiz shunday ekan shoir hech qachon ko'ngul buyuganini yozish kerakligi o'sha o'timdoshlarimizning bugungi ahvolidan xulosa chiqargan shoirlardan biri Tilak Jo'ra bo'lsa kerak. Tilak Jo'ra tug'ma shoir bo'lib to'g'ilganligi uning she'rlarining yozilish tarixidan bilsa bo'ladi. Shoir mustaqillikni atigi uch yillini ko'rdi xolos, she'rlarining deyarli ko'pisni turg'unlik yillari yozgan. Birorta she'r buyurtma bilan yozilmagani bugungi kun nigohi bilan qaragan kishi albatta sezadi.

"Yo'l yursam-yo'limda,
O'ltirsam- o'rnimda,
Yotganimda -qo'ynimda,

¹ Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври шеърляти. –Т., Фан. 2007. –Б.97.

O'lar bo'lsam-bo'ynimda
Borsan, vatanim!"

Qancha qora bo'lmasin,
Kechaning kunduzi bor!
Qancha daydi bo'lmasin,
Shamolning ildizi bor!

"Yo'l yursam- yo'limda,
O'ltirsam -o'rnimda,
Yotganimda -qo'ynimda,
O'lar bo'lsam bo'ynimda
Borsan, Vatanim!"²

Ushbu she'rda shoir vatan tuyg'usining abadiyligi va ajralmasligi bu qarash nafaqat shoirlarga mavzu har bir kishi uchun abadiy yorliq vatan so'zi. Shoir o'zining hissiyotlarini oddiy harakatlar, yurish, o'tirish, yotish hattoki o'lish holatlari orqali obrali ifodalaydi. O'lim paytida ham vatanim menga yuk emas, balki sharaftir vatanni bo'ynimga ko'tarib ketaman deydi. Shu o'rinda yozuvchi Chingiz aytmatovning "Qiyomat" romanidagi oltovlon va yettinchi hikoyasidagi qahramonining gapi beixtiyor yodga to'shadi. "Vatanni olib ketib bo'lganda edi xurjunga solib o'zim bilan olib ketgan bo'lardim" -deydi. Olib o'zing bilan yurolmaganing uchun u vatanda degan gapi insonni xayratlantiradi. "Agar o'zing qayerga borsang olib yurganingda u vatan bo'larmidi" -degan edi. Balki shu satrlar Tilak Jo'raga ham o'z ta'sirini o'tkazgandir. Shuning uchun ham har bir misrada ichki sadoqat, ko'ngul yaqinligi va fidoylik barx o'rib to'radi.

Ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gasset qayd etishicha: "Har qanday san'atning tarixi inson qalbining tomonlaridan birini ifodalashga bo'lgan urinishlardir. Xuddi shu narsa uni boshqa san'atlardan ajratib turadi. Bu urinishlar shunday bir egri chiziqni tashkil qiladiki, san'at kamalakning yengil o'qi kabi shu chiziq bo'ylab zamon qa'riga o'z maqsadi sari intiladi. Intihosiz ufqdagi shu nuqta har qaysi san'atning yo'nalishini, mohiyatini va ma'nosini ko'rsatib turadi"³, demak olimning fikrlari o'rnidir. Har bir xalq o'zining urf-odatlarini, qadriyatlarini, tili, madaniyati, tarixi bo'lganidek, ularni avloddan-avlodga yetkazadigan adabiyoti ham bo'ladi. Bu adabiyotning asrlar davomida takomillashib, boyib, sayqallanib borishida muhim rol o'ynaydi. Jumladan, Shoir Tilak Jo'ra XX asr ibtidosida Yevropa mamlakatlarida urfga kirgan adabiy oqim

² Тилак Жўра. Сайланма. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. -2011-. 126 б

³ Хосе Ортега-и-Гассет. Одам Ота жаннатда. -Т., Маънавият. 2010. -Б.307.

bo'libgina qolmay, u uzoq o'tmish an'analarini jiddiy o'zgartirganligi bilan ham qadrli. Bu borada olib borilgan katta-kichik tadqiqotlar olam va odam muammolari borasida muayyan darajada tasavvur qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Rahimjonov N. Mustaqillik davri she'riyati. –T., Fan. 2007. –B.97.
2. Tilak Jo'ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. -2011-. 126 b
3. Xose Ortega-i-Gasset. Odam Ota jannatda. –T., Ma'naviyat. 2010. –B.307.